

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 180 (969), 2023-yil 5-sentabr, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



## SHUKUH

### “BIRINCHI QO‘NG‘IROQ”NING JARANGDOR OVOZI

Bu yil yurtimizda 700 mingdan ortiq bolajonlar ilk bor maktabga qadam qo‘ydi

To‘rtinchi sentabr kuni mamlakatimizning barcha hududida “Birinci qo‘ng‘iroq” sadolari yangradi. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tizimidagi 10 ming 160 ta umumta‘lim maktabida 2023/2024-o‘quv yili boshlandi. Ilk marta maktab ostonasiga qadam bosgan 700 mingdan ortiq 1-sinf o‘quvchisiga 12 nomdagi o‘quv anjomlaridan iborat “Prezident sovg‘asi” topshirildi. Bolalar uchun bu tantana nafaqat o‘quv yilining boshlanishi, balki ular hayotida yangi davrga yo‘l ochuvchi hayajonli, orziqib kutilgan va unutilmas sana sifatida xotiralarda muhrlandi.

Davomi 2-betda



## BUGUNNING GAPI

### OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

Shu hafta Samarqandda bo‘lib o‘tadigan xalqaro anjumanning asosiy muhokama mavzusi



Prezidentimiz bundan qariyb bir yil oldin ko‘hna va muazzam shaharda bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashining majlisida xuddi shu taklifi ilgari surgan, bundan ko‘zlangan asosiy mohiyat va maqsadlarni shunday izohlagan edi: “Shuni tan olish kerakki, mamlakatlarimiz qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining yirik ishlab chiqaruvchilari, eksport va import qiluvchilari bo‘lishiga qaramasdan, SHHT doirasida oziq-ovqat xavfsizligi masalalari bo‘yicha hali jiddiy hamjihatlikni yo‘lga qo‘ya olmadik.



Davlatlarimiz salohiyati ichki bozorlarni boshqori ekinlar, chorvachilik va meva-sabzavot mahsulotlari, asosiy oziq-ovqat turlari hamda zarur o‘g‘itlar bilan muntazam ta‘minlash imkonini beradi. Bundan tashqari, biz ushbu muammoni global darajada hal qilishga hissa qo‘shishimiz kerak.

Shu munosabat bilan Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning umumiy tamoyillari va yondashuvlarini ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz. Ush-

bu hujjatda mavjud normativ-huquqiy bazani yaqinlashtirish, birgalikda tadqiqotlar o‘tkazish va yangiliklarni joriy etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni nazarda tutish muhim ahamiyatga ega...

Ushbu hayotiy masalalarni keng muhokama qilish maqsadida kelgusi yili Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konferensiya o‘tkazishni taklif etamiz”.

Davomi 3-betda

## YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN!

# KLASTER

Qishloq xo‘jaligining zamonaviy va samarador quvvati

Tayyor mahsulot iste‘molchiga yetib borishga qadar bir necha bosqichdan o‘tadi. Masalan, meva-sabzavotni dehqon yetishtiradi, ishlab chiqaruvchi uni olib, qayta ishlaydi, olib sotar yoki eksportchi esa bozorga chiqaradi. Bularning bari alohida ishchi kuchi, texnik vositalar, qo‘shimcha sarf-xarajat degani.



Xo‘sh, shularni bir joyda jamlashning imkonini yo‘qmi? Bor, albatta. Bundan ikki yil oldin yurtimiz qishloq xo‘jaligida joriy etilgan klaster tizimi xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan zanjirni o‘zida birlashtirish orqali bu vazifani bajarib bermoqda. O‘tgan qisqa vaqt ichida yangi tizim samarador ekanini ko‘rsatdi, hududlarda minglab ish o‘rinlari yaratilib, import mahsulotlarni mahalliy lashtirish imkonini vujudga keltirdi.

Zamonaviy qishloq xo‘jaligini “klaster” atamasi bilan yonma-yon qo‘llashga odatlanib ulgurdik. Sohada-gi bu yangicha yondashuv tez fursatda ommalashib, natija bera boshladi, tarmoqda keskin o‘zgarishlar qilishga zamin yaratdi. Shu bois, hozir klasterlarga qishloq xo‘jaligining lokomotivi sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizdagi dastlabki klaster paxta-to‘qimachilik yo‘nalishida ish

boshlagan edi. Bugungi kunga kelib, shu yo‘nalishda 134 ta klaster faoliyat yuritayapti. Hududlar rivoji, yangi ish o‘rinlari yaratish, eksportbop mahsulot ishlab chiqarish borasida ular yuqori natijalarga erishmoqda. Xususan, yurtimiz paxtachiligida to‘lani qayta ishlash 100 foizga yetkazilib, ip-kalava ishlab chiqarish 2,2, tayyor mahsulot 5 barobar ortdi. O‘tgan olti yil ichida bir gektardan

olinadigan paxta hosili 26 sentnerdan 34 sentnerga yetgan. Ayniqsa, Andijon, Buxoro, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo, Xorazm va Toshkent viloyatlarida 40 sentnergacha hosil olinmoqda. Shu yo‘nalishdagi klasterlarda mehnat qilib, daromad topayotganlar soni esa 600 ming kishini tashkil etyapti.

Davomi 4-betda

## MUNOSABAT

### MASOFAVIY TA‘LIM

AFZALLIGI NIMADA? KAMCHILIGI-CHI?

Oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta‘lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta‘lim xizmatini rivojlantirish, vebinar, onlayn, blended learning, flipped classroom texnologiyalarini keng joriy etish ko‘zda tutilgan.

2020-yilda dunyoni qamrab olgan pandemiya konservativ soha hisoblangan ta‘lim tizimini ham yangi sharoitga moslashish va o‘zgacha tartib-qoidalarni bo‘yicha ish olib borishga majbur qildi. Koronavirus tarqalishi masofaviy o‘qitish tizimida tub burilish davrini boshlab berdi. Pandemiya sabab O‘zbekistonda-gi nafaqat oliy ta‘lim, balki maktabgacha, umumiy o‘rta hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimi ham masofaviy o‘qitish usuliga o‘tdi. Ko‘rilgan choralar natijasida ta‘lim tizimiga masofaviy texnologiyalar joriy qilinib, 7 million o‘quvchi va 500 ming talabaga onlayn dars berish yo‘lga qo‘yildi.

UNESCO ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoda ta‘lim olish istagida bo‘lganlar ta‘lim muassasalaridagi o‘rinlar soniga nisbatan ko‘p. 2025-yilga borib, talabalar soni qo‘shimcha 98 million nafarga ko‘payadi. Yildan-yilga ortib borayotgan ushbu talabani ta‘minlashda ta‘limning masofaviy shakli qulay yechim bo‘lishi mumkin.

Uning afzalligi shundaki, har kim o‘ziga qulay vaqt, qulay joy va muhitda bilim olishi mumkin. Talaba va o‘qituvchi internet texnologiyalari yordamida doimiy mu-loqotda bo‘ladi. Internet texnologiyasini qo‘llashga asoslangan masofaviy o‘qitish jahon axborot ta‘lim tarmog‘iga kirish imkonini beradi.

Davomi 5-betda

## NUQTAYI NAZAR



QURILISH SOHASI: SAKKIZTA USTUVOR YO‘NALISH

2

## TURIZM



RISHTONGA SAYYOH KELSA, XIJOLAT BO‘LARDIK

6

## DAXLDORLIK

### YANGI MEGALOYIHA

Maqsad aniq, natijani esa vaqt ko‘rsatadi

Rivojlangan davlatlar muvaffaqiyati tahlil qilinganda, to‘g‘ri tanlangan boshqaruv tizimi va ta‘limga e‘tibor mamlakatni yuksak pog‘onaga olib chiqqaniga guvoh bo‘lamiz. Insoniyat tarixiga nazar tashlanganda ham ilm-fan, ta‘lim inson aqliy ehtiyoji, turmush mashaqqatlarini yengishda najotkor bo‘lib kelgan aydinlashadi. Sababi har qanday sohaning rivoji, inson aql-zakovatining boyishi zamirida ilm yotadi. Shu ma‘noda, mamlakatimiz dunyo davlatlari orasida o‘ziga xos takomillashayotgan ta‘lim tizimi bilan mustahkam mavqega ko‘tarilmoqda.

Davomi 5-betda

## SHUKUH

# “BIRINCHI QO‘NG‘IROQ”NING JARANGDOR OVOZI

## Bu yil yurtimizda 700 mingdan ortiq bolajonlar ilk bor maktabga qadam qo‘ydi

Boshlanishi 1-betda

Umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan 6,5 milliondan ortiq o'quvchi ish-tirokida tashkil etilgan "Birinci qo'ng'iroq" tadbirlarida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi mutasaddilari, mahalliy hokimlik va idoralar mas'ullari, keng jamoatchilik vakillari, mahalla faollari va ota-onalar qatnashdi.

Shunday tantanalardan biri poytaxtimizdagi 64-maktabda bo'lib o'tdi. Unda maktabgacha va maktab ta'limi vaziri Hilola Umarova ishtirok etib, yig'ilganlarni yangi o'quv yili bilan tabrikladi.

— Barchangizni boshlanayotgan yangi o'quv yili bilan qizg'in muborakkob etaman. Ayniqsa, maktabga ilk bor qadam qo'ygan 1-sinf o'quvchilarini, ularning ota-onalarini qo'shaloq bayram bilan tabriklayman, — dedi vazir. — Bu yil asosiy e'tiborni o'quvchilarga sifatli ta'lim berishga qaratamiz. Xususan, siz bilim olayotgan ushbu maktabda shu o'quv yilidan boshlab Prezident va ixtisoslashgan maktablardagi yangi

chiqilgan yangi darsliklar kutib turibdi. Bularning barchasi, umuman, sohadagi har bir yangilanish yurtimiz ertasi bo'lgan farzandlarimizning iqbol uchun. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonada ulkan marjalarni zabt etishda maktab ta'limining o'rni beqiyos. Bunda, avvalo, fidoyi va malakali ustozlarimizga suyanamiz.

Maktabning did bilan bezatilgan hovlisida tantana davom etdi. Musiqi sadosi ostida o'g'il-qizlar bilimiga chorlovchi she'r va qo'shiqlar ijro etishdi. So'zga chiqqanlar "Birinci qo'ng'iroq" shunchaki bayram emasligi, mustaqillik, tinchlik, bilimlar bayrami sifatida o'g'il-qizlarni katta maqsadlar sari boshlashi, maktabga, ilm-fanga yuksak hurmat tuyg'usini shakllantirishini ta'kidladi.

Bunday tantanalarda yurtimizning boshqa hududlarida ham ko'tarinki saviyada tashkil etildi. Ayniqsa, yangi barpo etilgan, to'liq



mablag' evaziga qariyb 650 o'quvchiga mo'ljallangan maktab binosi yangidan ta'mirlandi. Unga qo'shimcha 420 o'rinni o'quv binosi qurib berildi.

"Birinci qo'ng'iroq" chalinganidan so'ng o'quvchilar barcha qulaylikka ega, zamonaviy jihozlangan, shinam sinfonalar sari hayajon va ishtiyoq bilan yo'l oldi. Ularga "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida "Mustaqillik darsi" o'tildi.

Ushbu darslarda istiqbol yillarida erishilgan yutuqlar, yoshlarimiz qo'lga kiritayotgan marjalar hamda milliy tariximizning yorqin lavhalari haqida o'quvchilarga so'zlab berildi. Zotan "Mustaqillik darsi"dan ko'zlangan maqsad yangi o'quv yilini o'quvchilar tafakkurini milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik tuyg'ulari bilan uyg'un holda boshlashdan iborat.

Shuningdek, "Mustaqillik darsi"da jaddidchilik harakati namoyandalari, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi fidoyi vatandoshlarimizning hayoti va faoliyatiga oid taqdimotlar o'tkazildi.

Joriy o'quv yilidan boshlab boshlang'ich

sinf o'quvchilarining xalqaro talablarga mos yangi darsliklar asosida tahsil olishi barcha uchun katta xushxabar bo'ldi. Ushbu darslik va qo'shimcha o'quv qo'llanmalari ota-onalar, o'qituvchilarga ham manzur bo'ldi.

— O'g'lim Glier nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining 1-sinfga qadam qo'yd, — deydi toshkentlik Saodat To'raboyeva. — "Prezident sovg'asi"dan farzandim juda xursand bo'ldi. Ayniqsa, yangi darsliklar zamonaviy, bolalar yoshiga mos bezatilgan, mashg'ulotlari ham sodda, tushunarli berilgan. Bu darsliklar farzandlarimizning bilim, salohiyati bo'lib voyaga yetishiga xizmat qilishi shubhasiz.

"Birinci qo'ng'iroq" va "Mustaqillik darsi" tadbirlari o'quvchilar, ota-onalar, pedagoglar uchun shukuhli tarzda o'tdi. Bu tantanalarda o'g'il-qizlarda sifatli ta'lim olish, kreativ, mustaqil fikrlash, muammolarni hal etishga yo'naltirilgan zamonaviy bilimlarni egallash, xorijiy tillarni mukammal o'rganishga ishtiyoq uyg'otganiga ishonamiz.

**Risolat MADIYEVA,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



metodikalarga asoslangan baholash tizimi tajriba-sinovdan o'tkaziladi. Maktabingiz o'quvchilari bu yil "Eng yaxshi xorijiy til maktabi" tanlovining tuman bosqichida 2-o'rinni egalladi. O'ylaymizki, kelgusi o'quv yilida maktab jamoasining yutuqlari bundan-da ko'p bo'ladi. Yangi o'quv yilida bolalarimizni ko'plab yangiliklar, xususan, boshlang'ich sinflar uchun ishlab

ta'mirlangan ta'lim muassasalari "Bilimlar kuni"ni o'zgaracha shukuh bilan qarshi oldi. Jumladan, Xorazm viloyati Bog'ot tumanining olis Qipchoq mahallasida bu tadbir har yilgidan o'zgaracha o'tdi. Chunki bu yil investitsiya dasturi asosida mahalla hududidagi 13-maktab to'liq rekonstruksiya qilindi. 12 milliard so'mdan ziyod

## HUDUDLAR HAYOTI

## QIZILQUM INVESTORLARNI NIMASI BILAN JALB QILMOQQA?

Navoiy viloyati markazidan 300 kilometr olisda joylashgan Uchquduq tumanining asosiy drayveri hisoblangan sanoat, ishlab chiqarish yo'nalishlaridagi loyihalar natijasida hududda keng ko'lamli geologiya-qidiruv, yangi konlar ochish, tadbirkorlik subyektlari, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish va qurilish-bunyodkorlik ishlari jadal sur'atda davom etmoqda. Tumanda Navoiy kon-metallurgiya kombinatining Shimoliy kon boshqarmasi tasarrufidagi yirik korxonalar mavjud bo'lib, ular nafaqat respublikada, balki dunyoda yetakchilar qatorida turadi. Hozir boshqarmada 8 mingdan ziyod ishchi-xodim mehnat qilmoqda. Ular uchun munosib mehnat sharoiti yaratilgan ish samaradorligi ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

## Yozi jazirama, qishi qahraton

O'tgan asrda birgina tog'-kon sanoati bilan tanilgan Uchquduqda bugun boshqa sohalarda ham jadal rivojlanayotgan. Xususan, chorvachilik rivoji avjida. Ayni paytda tumanda chorva bosh sonini oshirish, aholini sifatli go'sht va sut mahsulotlari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan samarasida katta yutuqlarga erishilyapti.

— Bu yerning yozi issiq, qish juda sovuq. Shuning uchun chorvachilikni rivojlantirishda shu jihatlarda ham e'tiborga olinadi. Ayni vaqtda 150 ga yaqin fermer xo'jaligi va MCHJ shu yo'nalishda faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning har birida

## Bandlik farovonlikni ta'minlaydi

Uchquduq tumanida 985 ta xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyekti faoliyat yuritmoqda va ular tomonidan 3 mingga yaqin ish o'rni yaratilgan. Tuman aholisining 18 mingdan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Ularni kasb-hunariga o'rgatish, tadbirkorlikka yo'naltirish maqsadida tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. 10 gektar maydonda tashkil etilgan Yoshlar sanoat zonasida 28 ta loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Hozir mebel sexi, mehmonxona, savdo majmuasi singari 4 ta loyiha foydalanishga topshirilgan bo'lsa, 14 ta loyiha doirasida qurilish ishlari davom etmoqda. Tadbirkorlik uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlar esa olis cho'l hududida ishlabarmonlik muhiti yanada keng quloch yozishiga xizmat qilayotir.

— Joriy yilda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish maqsadida 400 ga yaqin fuqaroga banklar tomonidan 10 milliard so'mdan ziyod kredit berildi. Ularning 68 nafari ishlab chiqarish, 289 nafari xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyat boshladi. Tumanimizda hududlar kesimida ularning asosiy drayverlari belgilab olingan. Misol uchun, tuman markazi va unga yaqin hududlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish,

olis mahallalarda esa chorvachilik asosiy drayverdir, — deydi tuman hokimi o'rinbosari Farrux Bayofev.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, Uchquduq tumanida ham ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohasidagi zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, eksportpor mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini oshirish, ayniqsa, hududga to'g'ri-dan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Joriy yilda tumanda 3,5 million dollar investitsiya jalb qilish vazifasi qo'yilgan bo'lsa, bugungi kunda olti oylik reja 2 million dollarga ortig'i bilan bajarilgan. Yil yakuniga qadar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha ko'rsatkich 5,5 million dollarga yetishi kutilmoqda.

Hozir tumanda markaziy shifoxona, ko'p tarmoqli markaziy poliklinika, oilaviy poliklinika, 7 ta oilaviy shifokorlik punkti hamda 3 ta mahalla tibbiy punkti mavjud.

— Tuman markaziy shifoxonasida barcha kasalliklar bo'yicha bo'limlar bo'lib, ularda malakali shifokorlar faoliyat yuritmoqda. Yaqinda tug'urug' bo'limining moddiy-texnik bazasi tubdan yangilandi va zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlandi. Bu esa ona va bola salomatligini muhofaza qilishda qator qulayliklar yaratdi. Jumladan, og'ir asoratlar bilan yoki muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlar parvarishi uchun yangi tibbiy apparatlar olib kelindi, — deydi Uchquduq tumani tibbiyot birlashmasi bosh shifokori Xurshid Shukurov.

Mustaqilligimizning 32 yillik shodiyonlarini uchquduqliklar ana shunday bunyodkorlik va turli sohalardagi yutuqlar bilan kutib olmoqda.

**G'olib ABDUSALOMOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## O'ZBEKISTON XALQ ARTISTI SHERALI JO'RAYEV

O'zbekiston madaniyati va san'ati og'ir jodulikka uchradi.

Milliy qo'shiqchilik san'atimizning atoqli namoyandasi, ustoz san'atkor, O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'rayev shu yil 4-sentabr kuni 77 yoshida vafot etdi.

Sherali Jo'rayev 1947-yil 12-aprelda Andijon viloyatining Asaka shahrida tug'ildi. 1971-yilda Toshkent teatr va rassomchilik san'ati instituti (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti)ni tamomlab, mehnat faoliyatini "Shodlik" ashula va raqs ansamblining xonandasi sifatida boshladi. Ko'p yillar Andijon viloyati filarmoniyasi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi, "O'zbekkonsert" davlat muassasasi kabi ijodiy tashkilotlarda faoliyat ko'rsatib, xalqimizga sidqidildan xizmat qildi.

Sherali Jo'rayev o'zining noyob iste'dodi, betakror ovozi va yuksak ijro mahorati bilan yuzlab yorqin qo'shiqlar yaratib, xalqimiz o'rtasida munosib obro'-e'tibor topdi. Mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning ko'plab she'riy namunalari ni kuyma solib, o'zbek qo'shiqchilik san'atining "oltin fondi"ni boyitishga beqiyos hissa qo'shdi.

Sherali Jo'rayev ko'p yillik samarali ijodi bilan zamonaviy milliy san'atimiz va madaniyatimizni rivojlantirish, uning shuhratini chet ellarda keng targ'ib etish borasida ham fidoyilik ko'rsatdi. U jamoat ishlarida ham faol ishtirok etdi. Ayniqsa, milliy parlamentimiz deputati sifatida mustaqilligimizning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasida jonbozlik bilan faoliyat olib bordi.

**SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, X. SULTONOV, O. NAZARBEKOV**

## NUQTAYI NAZAR

## QURILISH SOHASI: SAKKIZTA USTUVOR YO'NALISH

Prezidentimizning shu yil 28-avgustdagi "Ma'muriy islohotlar doirasida qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining soha rivoji uchun dolzarbligi va ahamiyati nimada?

Vazirlik matbuot xizmatidan ma'lum qilishlaricha, ushbu hujjat asosida Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi faoliyatining 8 ta ustuvor yo'nalishi belgilab berildi. Shuningdek, vazirlik tizimidagi tashkilotlarni qayta tashkil qilish dasturi ham tasdiqlandi. Unga ko'ra, Qurilish vazirligi faoliyatini rivojlantirish va Uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligini rivojlantirish jamg'armalari birlashtirilib, yagona jamg'armaga aylantirildi. Vazirlik muassisligidagi 5 ta davlat unitar korxonasi va 1 ta mas'uliyati cheklangan jamiyat qayta tashkil etilib, davlat muassasalari aylantirildi hamda faoliyatiga oid asosiy tartib-taomillar belgilab berildi. Shuningdek, vazirlik huzuridagi markaz va ilmiy-tadqiqot instituti nomlari o'zgartirilib, faoliyat yo'nalishi tasdiqlandi.

"O'zsuvtaminot", "O'zgor'irsanoatlohiya" va "ToshuyjoyLITI" AJlarining aksiyalarini boshqarish vakolati vazirlikka o'tkazilib, vertikal boshqaruv va hisobdorlik tizimi yaratildi. Ta'kidlash kerakki, vazirlik huzuridagi Ko'p xonadonli uylarni mukammal va joriy ta'mirlash hamda issiqlik ta'minoti obyektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi tugalib, uning o'rni hokimliklar huzuridagi Ko'p qavatli uylarni ta'mirlash injiniring kompaniyalari va hududiy boshqarmalar huzurida issiqlik ta'minoti obyektlari bo'yicha injiniring kompaniyalari tashkil etildi.

Yana bir yangilik: vazirlik huzurida aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha buyurtmachi funksiyasini bajaradigan hamda Davlat shaharsozlik kadastrini va shaharsozlik geoxarborot tizimini yuritadigan Urbanizatsiya va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish respublika markazi faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Shuningdek, arxitektura, qurilish, muhandislik va kommunal xo'jaligi sohalarida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ularni baholash bo'yicha ixtisoslashgan davlat oliy ta'lim muassasasi, ya'ni Kompetensiyani rivojlantirish instituti tashkil etilmoqda.

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat tizimi yanada kuchaytirilmoqda.

**Dilshod ULUG'MURODOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Keyingi yillarda "Vatandoshlar" jamoat fondining Vasiylik kengashi raisi vazifasida samarali mehnat qilib, xorijiy davlatlarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan aloqalarni mustahkamlashda munosib xizmat qildi.

Mohir san'atkor o'zbek milliy qo'shiqchiligida o'z ijodiy maktabini yaratib, ko'plab yosh iste'dod egalari ni tarbiyaladi.

Sherali Jo'rayevning milliy san'atimiz va madaniyatimizni rivojlantirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", "O'zbekiston xalq artisti" faxriy unvonlari, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti, "Fidokorona xizmatlari uchun" va "El-yurt hurmati" ordenlari bilan mukofotlangan edi.

Betakror san'atkor, samimiy va kamtarin inson, yoshlarning mehribon va talabchan ustoz Sherali Jo'rayevning yorqin xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.





www.yuz.uz

f

yuz\_official

yuz.uz\_news

BUGUNNING GAPI

# OZIQQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

## Shu hafta Samarqandda bo'lib o'tadigan xalqaro anjumaning asosiy muhokama mavzusi



**Abdurauf QORJOVOV, sharhlovchi**

Boshlanishi 1-betda

Mazkur tashabbus o'z ijobatini topyapti va 7-8-sentabr kunlari Samarqandda xalqaro konferensiya bo'lib o'tadi. Anjuman O'zbekiston hukumati tomonidan BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) texnik ko'magida tashkil etilgan. Tadbirda 30 dan ziyod mamlakatdan vazir va diplomatlardan, shuningdek, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Jahon banki, Islom oziq-ovqat xavfsizligi tashkiloti, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilot, moliya institutlari, ilmiy muassasalardan vakillar qatnashadi. Uning doirasida mamlakatimiz agrar tarmog'ini isloh qilish bo'yicha erishilgan yutuqlar taqdimoti, "O'zbekiston agrooziq-ovqat salohiyati" ko'rgazmasi va Birinchi agrooziq-ovqat investitsiya forumi o'tkaziladi. Forumda Germaniya, Italiya, Isroil, Vengriya, Koreya Respublikasi, Polsha, Ozarbayjon, Qozog'iston kabi davlatlardan 50 dan ziyod kompaniya qatnashishi kutilmoqda.

### Tarmoqning buguni va istiqboldagi imkoniyatlari

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti qayd etishicha, oziq-ovqat xavfsizligiga erishish bu — barcha insonlarning xohlagan vaqtida jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yetarli miqdorda xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishini anglatadi. Ushbu mahsulotlar shaxsni fiziologik me'yorlar bo'yicha

**Statistik ma'lumotlarga qaraganda, yurtimizda 2022-yilda oziq-ovqat mahsulotlari narxi indeks 115,6 foizga teng bo'lgan. Mevalar narxida kuzatilgan pasayish inflyatsiyani tutib turuvchi omil bo'lib xizmat qildi. Go'sht, baliq, yog'-moy mahsulotlari hamda sabzavotlar narxining o'sish sur'ati 2021-yildagiga nisbatan past darajada qayd etildi.**

qoniqtirishi, uning xohish-istagiga mos kelishi va faol sog'lom turmush tarzini shakllantirishi zarur.

Mutaxassislar fikricha, oziq-ovqat mahsulotlari tanqis bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sekinlashgani va aksincha, fuqarolari yetarli ratsionda ovqatlanishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni qandirish borasida atroflicha ma'lumot olish imkonini beradi. U odamlarning daromadi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan narx o'rtasidagi nisbatni ifodalash bilan birga, bozorning ushbu mahsulot turlari bilan to'yinganlik darajasi, ularning sifati va turlar bo'yicha tarkibini ham hisobga oladi. Binobarin, ushbu indeksda yuqoriga ko'tarilib borgan sayin mamlakatning xalqaro nufuzi, obro'-e'tibori ham ortadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2019-2022-yillar bo'yicha umumiy reytingda O'zbekiston o'n ikki o'ringa yuqoriladi va o'tgan yili 113 ta mamlakat orasida 73-o'rinni egalladi. "Sifat va xavfsizlik" yo'nalishi bo'yicha 3, "Iqtisodiy foydalana olish imkoniyati" yo'nalishi bo'yicha 18, "Barqarorlik va moslashish" yo'nalishi bo'yicha 36 pog'onaga ko'tarildi. Yana bir jihati shundaki, mamlakatimiz keyingi to'rt yilda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha eng yuqori o'sish ko'rsatkichlariga erishgan 10 mamlakat ichida birinchi o'rinni egallagan.

Endi esa, 1989-yilda o'tkazilgan statistik tadqiqotlar ma'lumotlariga e'tibor qaratsak. Unga ko'ra, iste'mol bozorida

sining 840 milliondan ortig'i to'yib ovqatlanmayotgani buning yaqqol dalilidir. Shu bois, jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasiga juda katta ahamiyat berib kelinadi. Eng so'nggi tadqiqotlar sayyora aholisining 30 foizidan ziyodi to'yib ovqatlanmaslik oqibatida asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosidan aziyat chekayotganini, 52 mamlakatda ochlikning "jiddiy", "xavotirli" va "favqulodda jiddiy" darajalari qayd etilganini ko'rsatmoqda.

Haqiqatan, dunyoda iqlim o'zgarayotgani, ko'p joylarda kuzatilayotgan qurg'oqchilik oqibatida oziq-ovqat yetishmovchiligi dolzarblashib bormoqda. FAOning tahlilicha, jahonda ayni paytda 2,3 milliard inson kam yoki o'tkir oziq-ovqat xavfsizligi yo'qligi holatida yashamoqda, ularning 566 millioni Osiyoda istiqomat qiladi.

Buning ustiga, xalqaro maydonda ziddiyatlar tufayli mahsulot ishlab chiqarish va yetkazib berish murakkab bo'lib bormoqda. Pandemiya ham birinchi zarbani logistika zanjirlari va ishlab chiqaruvchilarga berdi. Natijada oziq-ovqat narxlari ko'tarildi, tabiiy gaz bahosining keskin oshishi tufayli mamlakatlar yetarli miqdorda o'g'it ishlab chiqara olmadi, o'nlab yillar davomida shakllantirilgan xalqaro logistika esa barbod bo'ldi.

Qishloq xo'jaligi vaziri Aziz Voitovning qayd etishicha, konferensiya kun tartibidan ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida yuqori sifatlilik va arzon oziq-ovqat mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish uchun samarali logistika, "yashil" va ekspres yo'laklar tashkil etish masalasi ham o'rin olgan.



aholi uchun zarur bo'lgan barcha mahsulotlarning qariyb 95 foizi bo'yicha uzilishlar bo'lib turgan va bu sobiq ittifoq hududida kundalik asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini aholiga kartochkalar orqali sotish tizimini joriy etishga sabab bo'lgan edi. 1989-yilda statistika organlari tomonidan yurtimiz aholisi o'rtasida o'tkazilgan rasmiy so'rovlarda qatnashganlarning 89,3 foizi go'sht mahsulotlarini yetarli darajada iste'mol qilmayotganini aytgan. Bu ko'rsatkichlar sut mahsulotlari bo'yicha 56,5 foiz, shakar bo'yicha 55,3 foiz, qandolat mahsulotlari bo'yicha 49,5 foiz, kartoshka bo'yicha esa 17,5 foizni tashkil etgan.



Ushbu raqamlar mustaqillik ostonasida respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligiga kuchli tahdidlar mavjud bo'lgani, yurtimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga o'zi qodir bo'lmay qolganini ko'rsatadi. Shuning uchun ham istiqbolga erishilgan daromadi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan narx o'rtasidagi nisbatni ifodalash bilan birga, bozorning ushbu mahsulot turlari bilan to'yinganlik darajasi, ularning sifati va turlar bo'yicha tarkibini ham hisobga oladi. Binobarin, ushbu indeksda yuqoriga ko'tarilib borgan sayin mamlakatning xalqaro nufuzi, obro'-e'tibori ham ortadi.

Jahonda uch tarmoqli iqtisodiyot nazariyasiga muvofiq, taraqqiyotning industrial bosqichidan postindustrialga o'tish jarayoni shiddat bilan kechmoqda. Shunday bir paytda agrar sohani jadal rivojlantirish g'ayritabiiy tuyulmaydimi?



Gap shundaki, dunyoda, xususan, mamlakatimizda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari aynan agrar tarmoqni tez sur'atlarda rivojlantirish, istiqbolida uni iqtisodiy yuksalishning yetakchi omiliga aylantirishni taqozo etmoqda, — deydi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, iqtisodiyot fanlari doktori Murod Muhamedov. — Aslini olganda, ushbu nuqtayi nazar hozirgi kunda iqtisodiyot ilmi olamida hukmronlik qilayotgan va dunyoning deyarli barcha mamlakatlari amaliyotda qo'llanilayotgan uch tarmoqli iqtisodiyot nazariyasi tamoyillariga zid. Zamonaviy nazariyada postindustrial jamiyatda iqtisodiyotda bandlarning 10 foizi qishloq xo'jaligida, 20 foizi sanoatda, 70 foizi xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lmoqi lozimligi ko'zda tutiladi. Yurtimizda esa mazkur sektorlarning ulushi avvalgi yilgi ma'lumotlarga ko'ra, mos tarzda 26,2, 33,3 hamda 50,5 foizni tashkil qilgan. Gap shundaki, milliy xususiyatlarga ega O'zbekiston sharoitida aynan qishloq xo'jaligiga strategik tarmoq sifatida qarash katta samara berishi mumkin. U jahon andozasiga qanchalik to'g'ri kelishi yoki kelmasligidan qat'i nazar, biz uchun iqtisodiy taraqqiyotda erishilgan pirovard natija muhim.

Binobarin, O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida yurtimizda 2018-yil holatiga ko'ra, aholi o'rtasida umumiy to'yib ovqatlanmaydiganlarni tashkil etgan 6,3 foizni 2025-yilga kelib, 3 foizgacha kamaytirish hamda 2030-yilga borib nol darajaga tushirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan va ushbu maqsadga erishish uchun tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz raisligida shu yil 23-mart kuni oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish, bahorgi ekin mavsumini samarali tashkil etish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida so'nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishga 200 ming gektar yer ajratilgan hamda 500 ming gektar qo'shimcha maydonlar foydalanishga kiritilgan ichki bozorda narx-navoni barqaror saqlashga xizmat qilayotgani qayd etildi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, yurtimizda 2022-yilda oziq-ovqat mahsulotlari narxi indeks 115,6 foizga teng bo'lgan. Mevalar narxida kuzatilgan pasayish inflyatsiyani tutib turuvchi omil bo'lib xizmat qildi. Go'sht, baliq, yog'-moy mahsulotlari hamda sabzavotlar narxining o'sish sur'ati 2021-yildagiga nisbatan past darajada qayd etildi.

Xalq dasturxonini to'kin bo'lishi maqsadida davlatimiz rahbari shu yil 23-mart kuni imzolagan "Iste'mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon bilan 2024-yil 1-yanvargacha 32 turdagi oziq-ovqat mahsulotining (36 turdagi oziq-ovqat va tovarlar) import bojlari nol stavkada belgilandi. Bundan tashqari, 1-maydan e'tiboran ijtimoiy reyestrda kirgan mol, qo'y, parranda go'shti, tuxum va o'simlik yog'i xarid qilsa, aholiga qo'shilgan qiymat solig'i qaytariladi. Bu orqali 2 milliondan ortiq oilaga yengillik yaratildi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, farmonda imtiyoz ko'zda tutilgan tovarlarga bo'xona bojlari nollashtirish go'sht va go'sht mahsulotlari importini 4,8 million, pishloqni qariyb 900 ming, yong'oqni 1,3 million, olma va nokni 1,9 million, yangi mevalarni 1,6 million, shokoladni 4,7 million, qandolat mahsulotlarini 1,2 million dollarga oshiradi. Xususan, 2022-yilda respublikamizga qariyb 900 million dollarlik mahsulotlar chet eldan xarid qilingan.

Oziq-ovqat xavfsizligini hal qilishda qator qiyinchiliklar borligiga qaramay, yurtimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ham miqdor, ham sifat jihatdan muntazam oshirib borish va shu orqali oziq-ovqat ta'minotini mustahkamlash borasida salmoqli natijalar qo'lga kiritilayotganini ham aytish zarur, — deydi Risqul Siddiqov. — Xususan, 2023-yilda belgilangan ko'rsatkichlarga erishish maqsadida 4 million gektar asosiy, bog'-tok qator oralari, lalmi va takroriy maydonlarda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish belgilangan. Ushbu maydondan 8,1 million tonna boshqoqli don, 528 ming tonna sholi, 579 ming tonna dukkakli, 345 ming tonna moyli, 12,2 million tonna sabzavot, 2,5 million tonna poliz, 4,1 million tonna kartoshka, 3,1 million tonna meva va 2 million tonna uzum yetishtirilishi kutilmoqda.

Shuningdek, hududlarda eta chetlariga 71 mingta fermer xo'jaligi tomonidan jami 59 ming gektarga tut, tok, terak, mevali ko'chatlar hamda 24 ming gektarga poliz, sabzavot va boshqa turdagi qishloq xo'jaligi ekinlari ekildi. Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha yil yakuniga qadar qoramollar sonini 14,4 million, qo'y-echkilarni 24,3 million boshga yetkazib, 2,9 million tonna go'sht, 12,2 million tonna sut, 9 milliard dona tuxum, 650 ming tonna baliq va 31 ming tonna asal ishlab



chiqarish mo'ljallanmoqda. Yurtimiz oziq-ovqat sanoatida 22 mingdan ortiq turli mulkchilik shaklidagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular tomonidan 2023-yilda jami 75,5 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

### Hamkorlik qirralari

FAO 1945-yilda tashkil etilgan, oradan bir yil o'tib BMTning oziqlanish, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha ixtisoslashgan muassasasi maqomiga ega bo'ldi. Unga bugungi kunda 194 davlat a'zo va 130 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritadi. Tashkilot faoliyatining asosiy maqsadi oziq-ovqat xavfsizligi va aholining yuqori sifatlilik oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan.

FAOning bosh qarorgohi Italiyaning Rim shahrida joylashgan. O'zbekistonda vakolatxonasi 2014-yilda ochilgan. Ayni paytgacha hamkorlik rejasiga binoran, tashkilot bir qator ustuvor yo'nalishlarda O'zbekiston hukumati, shu jumladan, Qishloq xo'jaligi vazirligi va boshqa davlat tashkilotlariga institutsional hamda strategik yordam ko'rsatib keladi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, bozorga kirish zanjirlari va barqaror tabiiy resurslarni boshqarish, iqlim o'zgarishi va biokimyo-xilik sohalarni qo'llab-quvvatlaydi. Davlatimiz rahbari joriy yil iyun oyi boshida Italiyaga rasmiy tashrif chog'ida BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ofisiga tashrif buyurdi va uning bosh direktori Syuy Dunyuy bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda O'zbekiston bilan ushbu muhim ixtisoslashtirilgan xalqaro institut o'rtasidagi hamkorlikni, eng avvalo, agrar tarmoqni modernizatsiya qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlarda kengaytirishning amaliy jihatlari ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz keyingi yillardagi samarali hamkorlik natijalarini alohida mamnuniyat bilan qayd etdi. Binobarin, oxirgi bir necha yilda hamkorlik portfelini uch barobar kengaytdi va bugungi kunda yer va sudvan foydalanish, agrosanoat majmui, o'rmon xo'jaligi, ekologiya, chorvachilik va ko'plab boshqa yo'nalishlarni qamrab olgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning FAO bilan hamkorlikdagi qo'shma loyihalari soni 66 ta bo'lib, umumiy qiymati 70,05 million dollarni tashkil etadi. Bugungacha qadar jami 15,03 million dollarlik 33 ta loyihani amalga oshirish yakunlandi.

Oziq-ovqat xavfsizligi, fundamental ilmiy tadqiqotlar, qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, Orolbo'yining ekologik muammolarini hal qilish va boshqa sohalarda aniq loyiha va tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan 2030-yilga qadar hamkorlik bo'yicha yangi keng ko'lami dasturi ishlab chiqish ustuvor yo'nalish sifatida belgilab olingan. Hozirgi paytda 33 ta loyiha ustida ish yuritilyapti (55,14 million dollar) va umumiy qiymati 41,3 million dollarga teng 4 ta loyiha ustida ish olib borilyapti.

Yuqorida qayd etganimizdek, FAO Samarqandda o'tkaziladigan Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiya-ga texnik ko'mak bermoqda.

Bo'lajak konferensiya FAO va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi, — deydi FAOning Markaziy Osiyo bo'yicha submintaqaviy koordinatori Viorel Gutsu. — Tadbir dunyoda agrooziq-ovqat tizimlarini rivojlantirish borasidagi chiqarqir va yechimlarni muhokama qilish uchun yaxshi maydon bo'ladi, deb o'ylayman. Bundan tashqari, 2030-yilga qadar oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanishni yaxshilash bo'yicha aniq vazifalar, shuningdek, barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan "Nol ochlik" 2-Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan choralarining amalga oshirilishi maqomini tahlil qilish imkonini beradi.



Iroda TOSHMATOVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

# KLASTER

## Qishloq xo'jaligining zamonaviy va samarador quvvati

### IP-KALAVA ISHLAB CHIQRISH QUVVATI 6 MING TONNAGA YETDI

Бошлангичи 1-бетда

Shu yilning 18-avgust kuni davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti oldidan "Faol tadbirkor" ko'krak nishoniga munosib ko'rilgan yurtdoshlarimiz orasida paxta-to'qimachilik klasterlari rahbarlari ham bor. Ular ayni yo'nalishda yuqori natijalarga erishib, o'zbek brendi ostidagi tekstil mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqayotgan, eng ilg'or texnologiyalar asosida paxta yetishtirishdan mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan zanjirni yarata olgan va buning ortidan

mamlakat iqtisodiyoti, xalq farovonligiga hissa qo'shayotgan faol ishbilarnolardir.

Uchrashuv davomida klasterlarga katta ishonch bildirilib, yangi tizim o'z natijasini berayotgani va oldinda hali ko'zlangan marralar katta ekani ta'kidlandi. Xususan, kelgusi yilda sohadagi eksport 1,5 barobar ko'paytirilib, 2022-yildagi 3,2 milliard dollar o'rniga 5 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Ana shu uchrashuv arafasida taqdirlangan faol ishbilarnolarning ayrimlarining qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar xususida fikrlarini olishga harakat qilidik.



Sarvar UMRZOQOV,  
Farg'ona viloyati, Toshloq tumanidagi "Expo color prin tex" MCHJ rahbari, "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni sohibi:

— Klaster bu — zamonaviy tizim. U an'anaviy qishloq xo'jaligidan ilg'or texnikalarning qo'llanilishi, mahsulot yetishtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini ilim-fan hamda raqamlashgan texnologiyalar asosida amalga oshirilishi bilan ajralib turadi. Bu yangi navlarni yaratish, yer unumdorligini oshirish, mahsulotlardan bir necha barobar yuqori hosil olish, resurstejamlor texnikalardan foydalanish kabilarni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni klasterda barcha jarayon aniq mexanizmlarga asoslanadi. Bularning bari sifatli, xalqaro talablarga javob beradigan eksportbop mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi. Qolaversa, klasterlar tomonidan yaratiladigan barqaror va rasmiy ish o'rinlari ham aholi daromadini oshirishdagi natijadorligi bilan dehqon yoki fermer xo'jaligidan farq qiladi.

Korxonamiz 2018-yildan boshlab klasterga aylandi. Bu faoliyatimizni kengaytirishda katta turtki bo'ldi. Umumiy yer maydonimiz 53,5 ming gektardan ortdi. Asosiy faoliyatimiz paxta xomashyosini chuqur qayta ishlashdan iborat. Buning uchun barcha sharoit bor. Klaster hududida paxtani qabul qilib olish punktlari, ishlab chiqarish sexlari, tayyor mahsulot omborlari tashkil etilgan. Shuningdek, paxta tozalash zavodi, ip yigiruv fabrikasi, baxmal matosi to'qish hamda yog'-moy zavodi mavjud.

“PAXTA TOLASINI CHUQUR QAYTA ISHLAB TAYYOR MAHSULOTNI BOZORGA CHIQRISH XOMASHYO SOTISHGA QARAGANDA KO'PROQ FOYDA KELTIRADI. KORXONANING YANGI QUVVATI ISHGA TUSHGACH, TOSHLAQ TUMANIDA YETISHTIRILADIGAN PAXTA XOMASHYOSINI YUZ FOIZ QAYTA ISHLASH IMKONIYATI PAYDO BO'LDI. BU KO'PROQ ISH O'RINLARI YARATIB, TUMANNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI. HOZIRDA EKSPORTDAGI YILLIK O'RTACHA HAJM 1,5 MILLION KILOGRAMMI TASHKIL ETAYPTI. MAHSULOTLARIMIZGA TURLI DAVLATLARDAN XARIDORLAR BOR. ASOSIY HAMKORLARIMIZ TURKIYA VA XITOIY.”



Fermer xo'jaliklarimizda yetishtirilgan paxta xomashyosi 40 ming tonna quvvatga ega zavodda qayta ishlalgach, ishlab chiqarish sexlariga yuboriladi. Avval tola, so'ng ip-kalava tayyorlanadi. Ip-kalavadan esa mato, keyin tayyor mahsulot ishlab chiqariladi. O'tgan yili 18 ming 559 tonna paxta xomashyosini qabul qilib olgan bo'lsak, uni qayta ishlashdan 5 ming 797 tonna tola, 1 ming 351 tonna ip-kalava, 384 tonna paxta yog'i va boshqa mahsulotlar oldik.

Klasterda yiliga 3 ming tonna ip-kalava ishlab chiqariladi edi, endilikda, bu quvvat 6 ming tonnaga yetkazildi. Gap shundaki, joriy yilning iyul oyida davlatimiz rahbari Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida bir qator sanoat korxonalarida bizning klasterga qarashli 3 ming tonna sifatli ip-kalava ishlab chiqaruvchi korxonaga blokini ham ishga tushirdi. Umumiy qiymati 140 milliard so'm bo'lgan mazkur investitsion loyihaning amalga oshirilishi natijasida 260 ta qo'shimcha yangi ish o'ri, 15 million dollarlik eksport salohiyati yaratildi.

Ayni vaqtda klasterda 470 dan ziyod ish o'ri yaratilgan. Korxonada zavodlarimiz eng so'nggi rusumdagi texnikalar bilan jihozlangan. Jumladan, ip-kalava ishlab chiqarish korxonasi Shveysariyaning "Rieter" kompaniyasidan keltirilgan zamonaviy texnologiyalardan foydalanamiz. O'rnatilgan liniyalarning har bir avtomatida o'zi boshqariladigan sensorlar bor. Ular ip-kalava sifatini doimiy nazorat qilib boradi. Texnologiya energiyatejamlor bo'lib, eng katta afzalligi ipni ikki tomonlama bosim asosida yigirib berishida. Qolaversa, korxonada sifat nazorati doimiy yo'lga qo'yilgan bo'lib, har soatda ip-kalava laboratoriya tekshiruvidan o'tkaziladi. Ana shular hisobiga Yevropa standartlariga mos, yuqori sifatli ip-kalava ishlab chiqarilmoqda. Ular jahon bozorida oddiy mahsulotlarga qaraganda bir necha barobar qimmatga baholanadi.

Umuman, paxta tolasini chuqur qayta ishlab tayyor mahsulotni bozorga chiqarish xomashyo sotishga qaraganda ko'proq foyda keltiradi. Korxonaning yangi quvvati ishga tushgach, Toshloq tumanida yetishtiriladigan paxta xomashyosini yuz foiz qayta ishlash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu ko'proq ish o'rinlari yaratib, tumanning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Hozirda eksportdagi yillik o'rtacha hajm 1,5 million kilogrammi tashkil etyapti. Mahsulotlarimizga turli davlatlardan xaridorlar bor. Asosiy hamkorlarimiz Turkiya va Xitoy.

Bunday katta quvvatlarga erishishning o'zi bo'lmaydi. Buning uchun tadbirkorga qulay muhit zarur va mamlakatimizda ana shu muhit yaratilgani bizga kuch, ishonch beryapti. Bugungi kunda birgina klasterlarga berilayotgan deyarli barcha yangi imtiyoz, imkoniyatlardan foydalanib kelyapmiz. Ya'ni imtiyozlar ishlarni kengaytirishda katta ko'mak bo'lyapti.



### HOSILDORLIK SALKAM IKKI BAROBAR YUQORI

Mamlakatimiz paxta va to'qimachilik sanoatida boshlangan yangi islohotlarni oxirgi 6-7 yil bilan bog'lashimiz bejiz emas. Chunki yuqoridagi raqamlardan ham ma'lumki, shu yillardan boshlab o'zbek o'z paxtasiga o'zi ega chiqa boshladi. Qiymatni, qadmi anglash barobanda buning isbotini amalda ham ko'rsatdi. Endi O'zbekiston paxta xomashyosini yetkazib beruvchidan tayyor mahsulot ishlab chiqarib, eksport qiluvchi davlatga aylandi.

O'tgan qisqa vaqt ichida to'qimachilik va tikuvchilik sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan

biri sifatida xalqaro texnologiyalar va sifat standartlari joriy etishda yetakchilik qilmoqda. Milliy brendlarimiz ostidagi tekstil mahsulotlari dunyoning ko'plab davlatlariga eksport qilinib, jahon bozorida munosib joy egallayapti.

Mazkur tarmoq, ayniqsa, aholi bandligini ta'minlashda katta imkoniyatlar taqdim eta oladi. Hozir yurtimiz bo'ylab yarim milliondan ortiq kishi shu tarmoqda mehnat qilaypti. Agar butun tizim ilm va zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil qilinsa, ish o'rinlari 1 millionga yetkazish mumkinligi hisob-kitob qilingan.

Orif BOBOXONOV,  
Namangan shahridagi "Art Soft Holding" MCHJ ta'sischisi, "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni sohibi:



— Klaster tizimining asosini ilmfanga asoslangan yondashuvlar hamda zamonaviy texnologiyalar tashkil qilgani bois, samaradorlik ham, hosildorlik ham, daromad ham ancha yuqori bo'lishi ta'minlanadi. Yuqori quvvat va hajmlar esa ko'proq ish o'rinlari yaratilishiga yo'l ochadi. Yurtimizdagi paxta-to'qimachilik klasterlari ham ayni shu vazifalarni bajaryapti, desak xato bo'lmaydi.

O'tgan asrning 90-yillaridan buyon to'qimachilik sohasida tadbirkorlik bilan shug'ullanib kelaman. Ishni yakka tadbirkorlikdan boshlab, 2005-yilda "Namangan momiq sochiqlari" MCHJ tashkil etdim. 2019-yilda esa klaster tizimiga o'tdik. "Art Soft Holding" MCHJ sifatida ish boshlagan klasterga Namangan viloyatining Pop va Mingbuloq tumanlari birlashtirildi.

Ayni paytda qo'shimcha faoliyat sifatida issiqxonaga, chorvachilik, parrandachilik va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, kafel keramika, chinni-forfor mahsulotlari ishlab chiqarish yo'nalishlarimiz mavjud. So'zga ilmiy yondashish, zamonaviy innovatsiyalarni tatbiq etish maqsadida agrar va to'qimachilik yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatuvchi ilmiy tadqiqot markazi tashkil etilgan. Hozirga qadar ushbu taqdqiqot markazimizda 5 ming 625 gektar maydonning tuproq holati tahlil qilinib, agroximkatalari ishlab chiqildi.

To'qimachilik uchun zarur bo'ladigan xomashyo o'zimizdan chiqadi. Mingbuloq va Pop tumanlaridan ajratilgan 51,8 ming gektar ekin maydonimizda paxta, g'alla va boshqa ekinlar yetishtiriladi. Hosildorlik ham ancha yuqori. O'tgan yili 156 ming 714 tonna g'alla, 87 ming 357 tonna paxta olishga erishdik. Klaster faoliyati natijasida bir necha yillardan beri paxta xomashyosini yetishtirish rejasini bajarmay kelayotgan

Pop tumanida o'rtacha hosildorlik 23 sentnerdan 38 sentnerga, Mingbuloq tumanida 25 sentnerdan 40 sentnerga yetdi. G'alla yetishtirishda ham hosildorlik sezilarli oshib, 45-50 sentnerdan 70-75 sentnerga ko'tarildi.

Shu o'rinda klaster nima qildiki, bu natijalarga erishdi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Avvalo, yuqorida ta'kidlaganimdek, klasterlar oldiga sohaga ilmiy yondashish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash vazifasi qo'yilgan. To'g'ri, bu ancha ko'p mablag' talab etadi, ammo natija shunga yarasha, hatto kutilganidan yuqori bo'lishini faoliyatimizda ko'rib kelyapmiz. Xususan, 3 ming gektar maydonida 60 milliard so'mlik tomchilatib sug'orish texnologiyalarining joriy etilgani, qiymati 24 million dollarlik 788 ta zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari olib kelinib, texnika ta'minoti yaxshilangani va boshqa omillar hisobiga ishimizga baraka kirdi.

Bundan tashqari, 2020-yildan boshlab ilk bor organik paxta yetishtirishni yo'lga qo'ydik. Buning uchun maxsus xalqaro sertifikatni ham oldik. Jahon bozorida organik, ya'ni ekologik toza paxtaga talab nihoyatda yuqori bo'lgani uchun

xaridorlarning o'zlari bizni topib kelyapti. Shu bois, organik mahsulot yetishtiriladigan maydonlarni yildan-yilga ko'paytirib, joriy yilda 200 gektarga yetkazildi.

O'tgan yili 618,7 milliard so'mlik kalava ip, to'quv, trikotaj hamda tayyor tikuv mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, joriy yil 7 oyining o'zida 860,8 milliard so'mlik mahsulot tayyorlashga erishdik. Eksport hajmi va geografiasini ham yildan-yilga kengaymoqda. O'tgan yili 36,6 million dollarlik, shu yilning o'rgan davrida 19,5 million dollarlik mahsulot eksport qilidik. Mahsulotlarimiz Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Polsha, Latviya, Litva, Germaniya, Ukraina, Xitoy, Turkiya davlatlariga kirib bormoqda.

Ishlab chiqarish korxonalarimizdagi texnikalarimiz Yevropa davlatlaridan olib kelingan. Masalan, Germaniyaning "Carl Schmale" kompaniyasida ishlab chiqarilgan "Schmaleurate" dastgohlaridan 4 ta o'rnatganmiz. Ular ruholatidagi sochiqlarni avtomatik ravishda ko'ndalang kesib tikadi va etiketka qadaydi. Bunda ish unumdorligi sochiqlar assortimentiga qarab soatiga 700 dan 1 ming 400 donagacha yoki boshqacha aytganda, kuniga 4 ta dastgoh 7 tonnadan 15 tonnagacha mahsulot chiqara olish quvvatiga ega.

Klasterda 10 ming 800 kishi ishlaydi. Asosiy maqsadlarimizdan biri ko'proq ish o'ri yaratish, hududlar rivojiga hissa qo'shishdan iborat.

Oldinda rejalarimiz bir qancha. Jumladan, Turkiyaning "Akcha Holding" kompaniyasi bilan birgalikda kelgusi yili qiymati 250 million dollarlik investitsion loyihani ishga tushirish, ishlab chiqarish korxonamizning 6 gektar maydonida 2-bosqich yostiqlik va ko'rpa jild to'plamlarini ishlab chiqarish va bo'yashga mo'ljallangan umumiy qiymati 64,7 million yevro miqdoridagi loyihaga start berish ko'zda tutilgan. Qiymati 30 million dollarga teng bo'lgan xorijiy davlatdagi ilk "ART SOFT KG" loyihasini amalga oshirish bo'yicha ham harakatlar boshlangan.

### SOHADA YETAKCHI

Chindan ham, klasterlar bugungi qishloq xo'jaligining katta kuchiga aylandi. Ammo bu doim ularning oshig'i olchi, barcha muammolari osonlikcha hal bo'ladi, degani emas. Bozordagi tebranishlar, iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq holatlar ularning faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi bor gap. Masalan, o'tgan yilgi paxta hosili bo'yicha

Alisher SOBIROV,  
Bog'ot tumanidagi "Xorazm tex" MCHJ ta'sischisi, "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni sohibi:

— Tadbirkorlik faoliyatimni yo'l va qurilish sohasidan boshlaganman. 2018-yildan paxta-to'qimachilik klasterini tashkil etdim. Jarayon oson bo'lmadi. Chunki xomashyo yetishtirishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan tizimni birlashtirish yengil ish emasdi. Buning uchun eng ilg'or texnologiyalar, ilgama asoslangan yondashuvlar zarur. Bu borada bizga davlat tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilgani katta ko'mak bo'lyapti. Banklardan kredit



o'lish masalalari ham avvalgiga qaraganda ancha soddalashgan. Ortiqcha ovoragarchilik, to'siqlarning yo'qligi ishimizni yengillashiradi. Ish boshlaganimizning avvalidan to bugungacha qadar mana shu imtiyozlardan foydalanib kelyapmiz.

Klasterimiz ko'p tarmoqli bo'lib, chorvachilik, dehqon xo'jaligi mahsulotlari, paxta, bug'doy yetishtiriladi. Salkam 4 ming gektar yer maydonimiz bor. Asosiy faoliyatimiz paxta xomashyosini qayta ishlab, tayyor kiyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqarishdan iborat. Bu zanjir chigitni yerga qadashdan paxtani yetishtirish, tikuv, ip-kalava, trikotaj, jinsi material, paxta yog'i ishlab chiqarish kabilarni qamrab oladi.

Korxonalarimiz bir yilda 36 ming tonna paxtani qayta ishlash quvvatiga ega. Ishlab chiqarish sexlarimiz eng zamonaviy texnikalar bilan jihozlangan. Ular vaqt, ishchi kuchi, resurslarni bir necha barobar tejash bilan birga, sifatli, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarilishiga xizmat qilaypti.

Klaster tizimining afzalligi ham shunda: ishchi kuchi o'rnini raqamlashgan texnologiyalar egallaydi. Albatta, qo'l mehnati talab etiladigan ishlar ham bo'ladi. Shu bois, 1 ming 200 dan ziyod kishini ish bilan ta'minlaganmiz. Ammo baribir sexlardagi asosiy jarayon kompyuterlashgan tizim orqali boshqariladi. Ayniqsa, jinsi materialni ishlab chiqarishda bu juda muhim. Sifatli mahsulotning xaridori ham ko'p. Hozirda tayyor mahsulotlarimizni Turkiya, Rossiya, Xitoy, Ukraina davlatlariga eksport qilayapmiz.

Jamoamiz bilan faoliyatimizni yanada rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligida katta ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ko'proq aholi bandligini ta'minlashga hissa qo'shishni maqsad qilganmiz. Zero, yurtimiz iqtisodiyoti rivojida lokomotivga aylangan klasterlar yangi tashabbus, katta investitsion loyihalar bilan ham yetakchi bo'lishi kerak.

# MASOFAVIY TA'LIM

## Afzalligi nimada? Kamchiligi-chi?

**Jamshid SHARIPOV,**  
**Anvar ShEROV,**  
**"Taraqqiyot strategiyasi"**  
**markazi ekspertlari**

Boshlanishi 1-betda

Masofaviy o'qitish zamonaviy ta'limning eng muhim va tobora ommaviylashayotgan shaklidir. Zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishi ta'lim jarayonida qulay sharoitni vujudga keltirdi.

Bunday o'qitish elementlarining ta'lim muassasalarida joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta'lim tizimida o'qitishning bu turini takomillashtirish uchun barcha shart-sharoit mavjud. Shu nuqtayi nazardan, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-sonli qarori bilan 2022/2023-o'quv yilidan boshlab OTMda masofaviy ta'lim shaklini tashkil etish tartibi belgilangan.

Mazkur tartibga muvofiq, masofaviy ta'limni boshqarish uchun Learning Management System platformasi, internetga ulanish va foydalanish uchun axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi, o'quv kontenti, fanlarning elektron o'quv-metodik majmualari hamda ilmiy va o'quv adabiyotlarining elektron bazasi, ta'lim tashkiloti to'g'risidagi barcha axborot joylashtirilgan rasmiy veb-sahifa bo'lishi kabi talablar qo'yildi.

Xorij tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hisobiga kadrlarning sifatini yaxshilash imkoniyati kengayib bormoqda.

Onlayn yoki masofaviy ta'lim deganda, negadir yurimiz aholisining aksariyat qismi pandemiyasi sababli joriy etilgan ta'lim turini tushunadi. Lekin masofaviy ta'lim pandemiyaga qadar ham qator xorijiy davlatlarda ta'limning zamonaviy turi sifatida qo'llab kelingan. Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi tayyorlagan "Distance education in European higher education" hisobotiga ko'ra, Yevropada faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarining 53 foizida allaqachon masofaviy ta'lim shakli yo'lga qo'yilgan.

AQSHda pandemiya tufayli joriy etilgan karantin sharoitida o'quvchilar onlayn ta'limda turli dastur va platformalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Nyu-York ta'lim departamenti o'z veb-sahifasida "Learn at home" ("Uyda o'qi") ruknini ochdi. Mazkur ruknda uyga vazifalar, barcha fanlar bo'yicha o'quv materiallari va boshqa foydali platformalar havolalari joylashtirilgan. Ta'lim statistikasi milliy markazi ma'lumotlariga ko'ra, AQSH aholisining qariyb yarmi masofaviy o'qitishga bazaviy oliy ta'lim shakli sifatida qaraydi.

Bugun masofaviy ta'lim shakli bo'yicha qabul parametrlari belgilangan davlat OTMlarida masofaviy ta'lim ja-



rayonini tashkil etishda qator muammo va kamchiliklar mavjud.

Birinchidan, aksariyat oliy ta'lim muassasalari tomonidan masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etish uchun foydalanadigan va ta'lim jarayonining asosiy vositasi hisoblangan Moodle platformasiga elektron o'quv adabiyotlar va videodarsliklarni joylashtirish imkoniyati yo'q yoki hajmi cheklangan. Natijada o'quv adabiyotlari, kontentlar va boshqa materiallar talabalarga himoyalangan telegram va YouTube kanallari orqali yetkazilmoqda. Mazkur platforma koronavirus pandemiyasi davrida onlayn ta'limni tashkil etish uchun yagona yechim bo'lsa-da, bugun dolzarb hisoblangan asinxron masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etish talablariga to'liq javob bermaydi. Bu talabalar o'zlashtirish sur'atining pasayishiga sabab bo'ladi.

Ikkinchidan, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-sonli qarori bilan masofaviy ta'limni tashkil etish uchun o'quv muassasasida o'qitish jarayonini rejalashtirish, boshqarish, amalga oshirish va baholash uchun Learning Management System platformasining Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Ta'lim muassasalari, pedagog xodimlar, ta'lim oluvchilar va boshqa axborotlar to'g'risida yagona ma'lumotlar bazasi axborot tizimiga integratsiya qilinishi majburiyati bugunga qadar bajarilmagan. Tizim hamon yo'lga qo'yilmagan.

Uchinchidan, professor-o'qituvchilarning masofaviy ta'lim shakli bo'yicha o'quv kontentlar tayyorlash bilan bog'liq ish hajmi va o'quv yuklamasini aniqlashning muayyan mexanizmi mavjud emas. Shu bois, professor-o'qituvchilarning ish haqini hisoblash yoki moddiy rag'batlantirish bo'yicha tizim yo'lga qo'yilmagan. Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikka muvofiq, masofaviy ta'limda bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar sonining 1:50 nisbatda cheklanishi ham professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quv yuklamasi hajmining keskin oshishi va natijada ta'lim jarayoni sifatining yo'qolishiga sabab bo'lmoqda.

To'rtinchidan, Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish



tartibi to'g'risidagi nizomning 12-moddasiga asosan, masofaviy ta'lim shakliga talabalarni qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlatish boshqa ta'lim shakllari uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Biroq Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-sonli qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomda masofaviy ta'limga xos normalar inobatga olinmagan. Tegishli o'zgartirishlar esa hanzuga qadar kiritilmagan. Bu oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim shaklini belgilangan tartibda tashkil etishda muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Beshinchidan, oliy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar va imtixon jarayonida talabalar shaxsini avtomatik autentifikatsiyalash, xatti-harakati va nigohi yo'nalishini nazorat qilish, xonadagi tovushlar tahlili, videodagi buzilishlarni tuzatish va hisobotlar tayyorlashga yo'naltirilgan avtoproktoring dasturiy tizimining yo'lga qo'yilmagani davomat va o'zlashtirishni nazorat qilishga imkon bermaydi.

Oltinchidan, an'anaviy ta'limga qaraganda masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etish kamxarj bo'lishi, jumladan, o'quv va turar joy binolarini saqlash, kommunal xizmatlardan foydalanish,

texnik va xizmat ko'rsatish xodimlarini saqlash, o'quv adabiyotlarini chop etish va boshqa an'anaviy ta'limga xos xarajatlar yo'qligi o'qitish xizmatining tan-narxini pasaytiradi. Shunga qaramay, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan to'lov-kontrakt miqdori an'anaviy ta'lim shakliga nisbatan yuqori etib belgilangan.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish, mazkur jarayonda ilg'or texnologiyalar va xorijiy tajribani amaliyotga joriy qilish hamda Taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarni sifatli amalga oshirish uchun quyidagilar klafif etiladi:

1) yoshlarning masofaviy ta'limga qiziqishi yil sayin oshib borishi va mazkur jarayonda ta'lim sifatini ta'minlash uchun oraliq hamda yakuniy nazorat ishlarini masofadan turib kuzatib borish (avtoproktoring) talab etiladi. Shuni inobatga olgan holda, xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, oraliq va yakuniy nazorat ishlarini tashkil etish jarayonida talabning biometrik ma'lumotlariga asosan shaxsini mustaqil aniqlaydigan, xatti-harakatini nazorat qiladigan, xonadagi tovushlarni tahlil qilib boradigan, imtixon jarayonida qoidabuzarliklarni kuzatadigan va qayd etadigan zamonaviy avtoproktoring tizimini amaliyotga joriy etish;

2) talabalar bilimini inson omili aralashuvizis baholash va korruptsiyaviy holatlarni bartaraf qilish maqsadida kelgusida mazkur tizimni oliy ta'limning kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlarida to'liq joriy etish masalasini o'rganib chiqish;

3) cheklovlarisiz o'quv adabiyotlar, videodarsliklar, amaliy mashg'ulotlar va boshqa o'quv kontentlarini joylashtirish, talabalarning mazkur o'quv kontentlaridan foydalanishini monitoring qilish imkoniga ega maxsus platformani oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga tatbiq etish zarur. Shuningdek, Learning Management System talablaridan kelib chiqib, mazkur platformani Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Ta'lim muassasalari, pedagog xodimlar, ta'lim oluvchilar va boshqa axborotlar to'g'risida yagona ma'lumotlar bazasi axborot tizimiga integratsiya qilish bo'yicha tezkor choralar ko'rish;

4) masofaviy ta'limning jozibadorligini oshirish uchun o'quv jarayonida interfaol mashg'ulotlar, jumladan, turli multimedia, animatsiya, virtual laboratoriyalardan foydalanish ko'lamini oshirish hamda mazkur jarayonlarni tashkil etish uchun mas'ul professor-o'qituvchilar malakasini muttasil oshirish;

5) masofaviy ta'lim tizimida o'quv jarayonining sifatini oshirish hamda unga malakali kadrlarni jalb qilish maqsadida o'quv-amaliy mashg'ulotlar uchun multimedia, animatsiya, vizual va ko'rgazma-li materiallarni o'z ichiga olgan elektron o'quv kontentlarni yaratish bo'yicha professor-o'qituvchilar faoliyatini rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

6) masofaviy ta'limning to'lov-kontrakt miqdorini aniqlash bo'yicha xorijiy tajribani chuqur o'rganish va oliy ta'lim muassasalarining real xarajati (xizmat tanarxi)dan kelib chiqib, masofaviy ta'limning to'lov-kontrakt miqdorini belgilash tizimiga o'tish.

Bugun O'zbekistonda masofaviy ta'limda belgilangan to'lov-kontrakt pulining eng kam miqdori aholi jon boshiga hisoblaganda YIMga nisbatan 30,8 foizni tashkil etsa, ushbu ko'rsatkich Germaniya, Fransiya, Avstriya, Italiya, Ispaniya va Chexiya kabi Yevropa davlatlarida 4-8 foizdan oshmaydi. O'z navbatida, real ta'lim xizmati narxining belgilanishi kelgusida mamlakatni oliy ta'lim xabiga aylantirish va o'qitish xizmatlari eksportining oshishiga imkon yaratadi.



### YANGI MEGALOYIHA

#### Maqsad aniq, natijani esa vaqt ko'rsatadi



**Xudoynazar YUNUSOV,**  
**biologiya fanlari doktori,**  
**professor, O'zbekistonda**  
**xizmat ko'rsatgan chorvador**

Boshlanishi 1-betda

O'zbekistonning demografik ko'rsatkichi yil sayin oshib bormoqda. 30 yoshgacha bo'lganlar mamlakat aholisining 60 foizini tashkil qiladi. Kelgusi 20 yilda bugungi o'g'il-qizlar mamlakatimizdagi eng yirik asosiy kuchga aylanadi va yurti boshqaradi. Bugun Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida ishlayotgan 600 nafardan ortiq professor-o'qituvchi va ishchi-xodimlarning aksariyati yoshlar.

Rivojlangan dunyoda mamlakatlarning asosiy takomillashuv mexanizmi raqobatga asoslanadi. U insoniyatni doim yuksaklik, komillik va barkamollikka undaydi. Bunday sog'lom raqobat muhiti o'zgaracha shaklda ta'lim tizimida ham mavjud. Raqobat rivojlanish va taraqqiyotning shartlaridan biridir. Auditoriyaga kiradigan o'qituvchi talabning har bir savoliga javob bera olishi kerak. Aks holda, tezda yoshlar nazaridan qoladi.



Mazkur oliy ta'lim dargohi sohaga ixtisoslashtirilgan o'nlab nufuzli universitetlarning ilmiy tadqiqot va ta'lim faoliyati, shuningdek, xalqaro ta'lim dasturlari tizimi bilan hamkorlikda ish olib boryapti. Universitet o'tgan davrda malakali kadrlar tayyorlash, tajribali professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish yo'nalishida samarali tizimni yo'lga qo'ydi. Shuningdek, ixtisoslashtirilgan o'quv-ilmiy laboratoriyalar, o'quv-tajriba, ishlab chiqarish korxonalar va xo'jaliklari hamda hududiy filiallar, texnika va akademik litsey faoliyatini izchil rivojlantirmoqda.

Xalqaro reytingimiz yaxshilanishi natijasida nufuzli xorijiy OTMlar bilan ta'lim va ilmiy sohalarida har tomonlama hamkorlik kuchaymoqda. Sifatli ta'lim jarayonini tashkil etish maqsadida OTMlarning moddiy-texnik bazasi yaxshilandi. Sog'lom raqobat muhiti takomillashtirish uchun esa professor-o'qituvchilarning ilmiy darajasi, ishlanmalari, ilmiy maqolalaridan kelib chiqib, ularning ilmiy faoliyatiga haq to'lash tizimi shakllantirildi.

Davr talab etayotgan innovatsiyalarni ro'yobga chiqarishi uchun oliy ta'lim muassasasining o'zi ham zamonaviy innovatsion texnologiyalarni faoliyatiga tatbiq qilishi lozim. Bu ilmiy innovatsion rivojlanishni boshqarishga mo'ljallangan texnologiya, mexanizm va usullarni takomillashtirishni taqozo qiladi. Universitetda boshlangan yangi megaloyiha bunga yaqqol misoldir. Ilmiy kadrlar tayyorlashning samarali

tizimini yo'lga qo'yish, ilmiy izlanishlarni tijoriylashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish, talabalar amaliyotini tashkil etish hamda to'liq o'zini o'zi moliylashtirish mexanizmini yaratish maqsadida barcha imkoniyatni o'zida mujassam etgan "O'zbekistonda veterinariya, biotexnologiya va chorvachilik sohasini rivojlantirish uchun ilmiy kadrlarni intensiv tayyorlash ilmiy biznes inkubatori" megaloyihasi start berildi. Uning asosiy maqsadi yuqori malakali, xalqaro talabarga javob beradigan ilmiy kadrlarni intensiv tayyorlash orqali mamlakatimizda veterinariya, biotexnologiya va chorvachilik sohasini yetakchi o'rnlarga olib chiqishdan iborat.

Ayni paytda loyihada 75 nafar yosh olim faoliyat yuritmoqda. Ularning 15 nafari fan doktori (Dsc), boshqalari fan nomzodi (yoki PhD). Bundan tashqari, mustaqil izlanuvchilar va magistrlar tegishli mavzularda ilmiy tadqiqot olib bormoqda.

Megaloyiha va undan kutilayotgan natijalar Prezidentimizning 2022-yil 8-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturning maqsadli parametrlari va asosiy yo'nalishlari ijrosiga qaratilgan. Unga ko'ra, dastur aholini chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash hamda chorvachilik va uning tarmoqlarida ishlab chiqarish imkoniyatini kengaytirish, ushbu sohada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga oid davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Chorvachilik sohasida sifat nazoratini kuchaytirish, eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, qolaversa, boshqa muhimroq muammolar — atrof-muhit muhofazasi, chorvachilik va veterinariya sohasida infratuzilma xizmatlarini o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda rivojlantirish kabi eng ustuvor vazifalar loyiha doirasidagi ilmiy tadqiqot ishlari davomida tajriba-sinovdan o'tkaziladi. Mazkur faoli-

yat O'zbekistonning iqtisodiy hayotidagi jadal yangilanish hamda o'zgarishlar sharoitida ta'lim va fanni innovatsiyalarga yo'naltirilgan holda rivojlantirish maqsadlariga to'la mos keladi. Loyiha ishtirokchilari bu yil tashkil etilishi rejalashtirilgan 25 ta chorvachilik klasteri uchun ham mutaxassislar tayyorlaydi. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 24-avgustdagi "Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2023-2024-yillarda yurtingning 25 ta hududida ixtisoslashtirilgan chorvachilik majmualari faoliyati yo'lga qo'yiladi. Ularni yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash esa klasterlar rivoji uchun eng muhim shartlardandir.

Bugun ta'lim-tarbiya masalasi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sababi globalashuv jarayonida inson qalbi va ongi uchun kurash shiddat bilan kechmoqda. Bu esa pedagoglar zimmasiga ham zalvorli mas'uliyat yuklayapti. Ta'limning qaysi bosqichida bo'lmasin, mazmunini oshirish va sifatini ta'minlash zamonaviy pedagogning asosiy vazifasiga aylangan. O'qitish sifatini ta'minlash talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan birga o'quv jarayonining qanday tashkil etilishi, belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko'rinadi. Bu vazifa bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z aksini topgan.

**“ AQSHDA PANDEMIYA TUFAYLI JORIY ETILGAN KARANTIN SHAROITIDA O'QUVCHILAR ONLAYN TA'LIMDA TURLI DASTUR VA PLATFORMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATIGA EGA BO'LADI. NYU-YORK TA'LIM DEPARTAMENTI O'Z VEB-SAHIFASIDA "LEARN AT HOME" ("UYDA O'QI") RUKNINI OCHDI. MAZKUR RUKNDA UYGA VAZIFALAR, BARCHA FANLAR BO'YICHA O'QUV MATERIALLARI VA BOSHQA FOYDALI PLATFORMALAR HAVOLALARI JOYLASHTIRILGAN. TA'LIM STATISTIKASI MILLIY MARKAZI MA'LUMOTLARIGA KO'RA, AQSH AHOILISINING QARIYB YARMI MASOFAVIY O'QITISHGA BAZAVIY OLIY TA'LIM SHAKLI SIFATIDA QARAYDI.**



SHUKRONA

XOTIRJAMLIK, YENGILLIK BAG'ISHLOVCHI NE'MAT

Qamchibek KENJA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi

Yoshi o'tgani sayin inson tinchlik-osoyishtalik, erkin va farovon hayotga shukrona keltirish xayr-u barakani yanada ziyoda qilishini teranroq anglab boraveradi. Ayniqsa, milliardlab odam tashnalikda hayot kechirayotgan bugungi zamonda yuz jannatnondand biz ta'lim va madaniyat umrguzaronlik qilayotganimiz uchun ham shukrona aytamiz.



gan, aksincha, urilgan, surilgan, ko'plari inson bilan tovon to'lashga majbur bo'lgan. Keyingi bo'g'in ijodkorlarining vakillari ham yurdoshlari, millatdoshlarini barkamollikka, komilikka, dadillikka da'vat etib, ularda g'urur tuyg'usini qo'zg'atish uchun chora izladilar, yo'l axtarlilar. Va yana o'z asarlarida goh oshkora, goh pinhona ulug'likni, hurriyatni madh etdilar, ana shu ne'matlar nasib qilishidan umidvor bo'ldilar, kutdilar...

Ha, Vatanimizga, xalqimizga erk yo' bo'lishini qalam ahli, ziyolilar hammadan ko'proq orzu qilgan, intilgan. Shukrki, salafimizning istak-umidlari, elzgu niyatlari mustajob bo'ldi. Albatta, darhol emas, kutilganicha ham emas...

Ne-ne orzu-umidlari bilan erishganimiz mustaqillikning dastlabki 25 yilida deyarli chiroqsiz, boz ustiga, "terrorchi kelyapti", "ekstremist kelyapti", "olabo'ji kelyapti" kabi vahimalar ichida, "o'zingni o'zing asra!", "o'z uyini o'zing qo'riqla!" degan tahdidlar ostida, eshik-darvozalarni ichidan qatma-qat dambalab, uzog'dagi qarindosh tugul, qo'ni-qo'shni bilan ham kirdi-chiqdi qilmay o'tirdik. Xuddi mamlakatda militsiya yo'qdek, armiya yo'qdek, davlat yo'qdek... Dunyoda hamma yovdek... Mana, tinchgina yashayapmiz, hech qanday olabo'ji ham, qorabo'ji ham

tahdid solayotgani yo'q. Shunda ham shukr qilmasligimiz kerakmi?

Keyin hammasi izga tushishi, Vatan gurkirab-yashnab, mehnatkashlarning oshig'i olchi bo'lishi, el shod, yurt obod bo'lmog'i uchun, birinchi galda, parishon, mahzun chehralarga tabassum ato etish, ya'ni ro'zg'or tebratmakka maosh va nafaqalarni vaqtda berib turish, kelajakka umid, ishonch baxsh etishga, taraqqiyga erishmoq uchun yo'llardagiyo dilardagi to'siq-g'ovlarni olib, tushovlarni yechib tashlash, har turli cheklovlarni bartaraf etib, aloqalar, munosabatlarni qayta bog'lash, jahonga yo'l ochish, islohotlarni isloh qilish va boshqa muammolarga yechim topish lozimligi ayon bo'lib qoldi. Eng zaruri, quyida qolib ketgan inson omilini oldingi va dolzarb maqomga chiqarish edi.

Shu asnoda "xalqni rozi qilish"dek o'ta muhim, oltin va ezgu shior ilgari surildi. Darhaqiqat, har qancha taraqqiyot-u rivojga erishishdan, bu yo'l'dagi har qanday sa'y-harakat, mashaqqatlar-u riyozatlardan asosiy maqsad-muddao aholi turmushini farovonlashtirish, dard-u tashvishini yengillashtirib, kamaytirib, shodlig-u quvonchlarini oshirish, turmush darajasini yuqori ko'tarishdan iborat-ku. Shunday bo'ldi ham — xalqning arz-dodini tinglaydigan maxsus mahkamalar ochildi, qat'lanib yotgan ijtimoiy muammolar, ko'ngillardagi tugunlar yechila boshladi. Qad-u bastilar rostlandi, nigohlarga tabassum indi, nurli istiqbolga ishonch uyg'ondi. O'zbekistonning dunyo miqyosida tanilib, tan olinib, barcha sohadagi shiddatli qadamlari o'lchovi eng baland, qarichi uzun siyosatdonlari iqtisodchilar e'tirofiga sazovor bo'layotgani, xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy hamkorliklarimiz kun sayin kengayib borayotgani, har qanday mamlakat bilan yelkama-yelka taraqqiyotga intilayotgan Vatanimiz bo'yi-basti toborra yuksalayotgani ko'ra-bila turib ham nega faxr-u-iftixor tuymasligimiz, shukr qilmasligimiz kerak?

Eng muhimi, odamlar insoniy qadr-qimmat nima ekanini anglay boshladilar. Illo, shunchaki anglash, bahramand bo'lish yaxshi, lekin qadrlanishning qadriga yetish, yaratilgan imkon-u imtiyozlarni, g'amxo'rlik-u himoyalangan haq-huquqlarni suiiste'mol qilmaslik



mas'uliyati ham bor-ku. Qadriga yetish uchun olam birdaniga guliston bo'lib qolmasligini, avvalgi davrlarimizga emas, kechagi kunlarni ham unutmaslik, gulistonlikka erishish uchun esa insof, sabr, qanoat, shukr degan qoidalari sinovdan o'tish zarurligi tayin. Bugun uchun esa madaniyat, ma'rif, ma'naviyat saboqlarini o'zlashtirish taqozo etiladi.

2018-yil may oyida hayotimda favqu-lodda va umrbod yodda saqlanadigan bir voqealik bo'ldi. (Bu gaplarni besh yildan so'ng yozyapman). Davlatimiz rahbarining Andijonga tashrif chog'ida ijodkorlar bilan uchrashuvda adabiyot va uning xalq ruhini ko'tarishdagi xizmati va boshqa vazifalari borasida suhbat bo'ldi. O'shanda biz — O'zbekiston xalq shoiri To'lan Nizom, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi rahbari shoira Xurshida Vahobjon qizi va kamina kitoblarimizdan istihola bilan taqdim qilganimizda Shavkat Mirziyoyev ularni "Men kitob o'qishni yaxshi ko'raman", deb mamnu'niyat bilan qo'llig'a oldi va o'sha joyning o'zida varaqlab, mavzu-mundarijalari bilan qiziqdi. Oradan ikki hafta ham o'tmay, har uchalamizga Prezidentimiz nomidan

boradigan, tafakkuriy yuksalishni xavf ostiga qo'yadigan o'ta jiddiy muammo — izdan chiqib ketgan kitobxonlikni qayta yo'lga qo'yishga, kutubxonalaridagi kurakda turmaydigan, mantiqiy asoslarga ko'ra "qatag'on" qilingan kitob fondlari o'rini to'ldirishga, shu bilan birga, badiiy ijodga, ijodkorlarga alohida e'tibor qaratilayotgani ham hammaga yaxshi ayondir.

2018-yil may oyida hayotimda favqu-lodda va umrbod yodda saqlanadigan bir voqealik bo'ldi. (Bu gaplarni besh yildan so'ng yozyapman). Davlatimiz rahbarining Andijonga tashrif chog'ida ijodkorlar bilan uchrashuvda adabiyot va uning xalq ruhini ko'tarishdagi xizmati va boshqa vazifalari borasida suhbat bo'ldi. O'shanda biz — O'zbekiston xalq shoiri To'lan Nizom, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi rahbari shoira Xurshida Vahobjon qizi va kamina kitoblarimizdan istihola bilan taqdim qilganimizda Shavkat Mirziyoyev ularni "Men kitob o'qishni yaxshi ko'raman", deb mamnu'niyat bilan qo'llig'a oldi va o'sha joyning o'zida varaqlab, mavzu-mundarijalari bilan qiziqdi. Oradan ikki hafta ham o'tmay, har uchalamizga Prezidentimiz nomidan

rag'batnoma keldi. G'oyatda samimiy yozilgan nomalarda u kishi kitoblar bilan tanishib, katta taassurot olganini qayd etish barobarida bizga ijodiy muvaffaqiyatlar tilagan edi. Viloyatda yashab, qo'lidan kelganicha bir nimalar qoralab yurgan oddiy qalamkashga e'tibor shunchalik bo'lar, g'amxo'rlik shuncha bo'lar!.. Shunday qutlug' hodisa, shunday oliy munosabat uchun tashakkur bildirmaslik, shukr keltirmaslik mumkinmi? Axir Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon-u-Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir-u-Abdulla Avloniy, Behbudiy va Munavvarqori va boshqa o'rnatilgan adabiyot, madaniyat fidoyilari bunday e'tirof-u e'zozlarga sazovor bo'lmadi-ku... Har yili Mustaqillik bayrami oldidan davlat mukofoti bilan taqdirlanadigan turli soha vakillari safidan ijod ahliga ham nufuzli o'rinni ajratilishi g'amxo'rlik va yuksak e'tiborning yanada yorqin ifodasi emasmi? Demak, mana shunday omon-omon, qalam ahli qadr topgan zamonlarda umrguzaronlik qilayotganimiz, hech bir kimsaning mehnati diqqat-e'tibordan chetda qolmayotgani uchun har qancha shukr aytisak kam emasmi?

Men garchi ko'p yillar poxtaxtda, viloyat markazida turli vazifalarda ishlagan bo'lsam-da, ancha vaqtlardan beri tug'ilib o's-gan go'sham — Andijonning bir chekkasida Gurkurov qishlog'ida yashayman. Shunga qaramay, bahloli qudrat yaratgan bitiklarimning kitobxonlar, adabiy jamoatchilik nazariga tushib, umumiy o'rta ta'lim maktablari darsligiga, davlatimizning yuksak mukofotlariga loyiq ko'rinishi men uchun katta sharaf-ku. Shunday ekan, nechuk shukr keltirmaymiz?

Albatta, yoshlarga ibrat yo'sinidagi bunday rag'batlar yanada durustroq asarlar yozish, xalqimizga, Vatanimizga — yangi O'zbekistonga yanada astoydilroq xizmat qilishdek ulkan mas'uliyat yuklaydi, ayni chog'da, ilhomlantiradi, ruhlanitiradi, vatanparvarlik tuyg'ularini jo'sh urdiradi.

Shukrona aytish, minnatdoriik izhor etish esa ko'ngilni yanada yoritiradi, xotirjamlik, yengillik bag'ishlaydi.

TURIZM

RISHTONGA SAYYOH KELSA, XIJOLAT BO'LARDIK

Bugun manzara ham, shart-sharoit ham boshqacha

O'ttiz yil avval qadim Rishton tumanini istiqbolli turizm hududi sifatida hech kim bilmadisi. Bugunga kelib, bu boradagi fikr va qarashlar o'zgartirdi. Endilikda kulollar yuziga uzoq-yaqindan kelayotgan sayyohlar safi kengayib bormoqda. Bu bejiz emas, albatta.

Tumanda turizm salohiyatini rivojlantirish maqsadida yangi sayyohlik yo'nalishlari ochish, tarixiy obidalarini ta'mirlash, milliy hunarmandchilik, xalq amaliy san'ati namunalari ko'paytirish va targ'ib qilish kuchaydi. Xalqimizning buyuk o'tmishi, avlodlar-avlodga o'tib kelayotgan milliy hunarmandchilik an'analari, insoniy qadriyatlarini haqida yaqindan bilish istagida bo'lgan sayyohlar soni ortib bormoqda.

Shu yilning o'zida ichki va tashqi turizm yo'nalishlarida 2 million 645 mingdan ortiq mehmonlar keldi. Ularning 500 mingdan



ziyodi xorijiy sayyohlardir. Bu yerda ekoturizm, agroturizm, etnoturizm, sport turizmi, qishloq turizmi va tibbiyot turizmi singari yo'nalishlarni tashkil etish borasida istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Rossiya, Italiya, Fransiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Ukraina, Latviya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston davlatlari bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgani turizm salohiyatini yanada kengaytirish imkoniyatini bermoqda.

— Yaqingacha tumanimizga mehmon kel-sa, xijolat bo'lardik. Chunki sayyoh va mehmonlar uchun oddiy mehmonxona ham yo'q edi, — deydi Farg'ona viloyat turizm boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, tuman Kengashi deputati Bahodir Esmatov. — Bugun o'zgarishlar ko'p. Shu kunga qadar 2 ta zamonaviy mehmonxona, 1 ta xostel, 40 dan ortiq oilaviy mehmon uylari barpo etildi. Tahlillarga ko'ra, oilaviy mehmon uylariga bo'lgan talab tobora ortmoqda. Sayyohlar hashamatli mehmonxonalarida emas, o'zbekona ijrozonlangan od-diy xonadonlarda yashashni afzal ko'rmoqda. Chunki ular xalqimizning kundalik turmushi, urf-odatlarini, oilaviy an'analarini haqida ko'proq bilishni istaydi. Mehmon uylarida zarur darajada sifati xizmat ko'rsatish, tozalikka alohida e'tibor berish, turistlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha barcha sharoit yaratilgan. "Oltin vodi-y" uch kunlik sayohat dasturi ishlab chiqilgan. Shuningdek, turizm mavzesi va ko'chalari fao-liyatini tashkil etish ustida ish olib boryapmiz.

"Oqer" mahalla fuqarolar yig'ini hududida ish boshlagan "Chinor plus 2020" kulochilik va turizm markazi ana shunday istiqbolli loyihalar sirasiga kiradi. "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni sohibi Islomjon Ortqov tashabbusi bilan ishga tushirilgan majmuva kulochilik, mehmonxona va xizmat ko'rsatish sohalari-ni qamrab olgan. Yangi markazning o'ziga xos jihati bu yerda kelgan sayyohlar oddiy soz-tuproqdan mo'jiza yaratayotgan kulollar fao-liyatini, mashhur Cho'ng'ara guruchida palov tayyorlash jarayoni bilan yaqindan tanishish,



bevosita ishtirok etish imkoniyatiga ega. Bu yerda umumiy qiymati 55 milliard so'mlik investitsiya yo'naltirildi, mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi. Ellik o'rinni zamonaviy mehmonxona yil davomida 9 mingdan ortiq turist-ga xizmat ko'rsatadi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ko'hna yurtda ilk bor "Xalqaro kulochilik markazi" tashkil etilgan edi. Bu yerda 20 dan ortiq usta-kulol Rishton an'anaviy kulochilik makta-bini rivojlantirish, targ'ib qilishda faol ishtirok etyapti. Hunarmandchilik an'analarini rivojlan-gan "Qalaynav", "To'raobod" mahalla fuqarolar yig'inlarida ham muzey va hunarmandlar markazlari tashkil etilmoqda.

Tun-u kun xizmatga shay

"Markaz" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi Ar-Roshidniy ko'chasida tunu kun ish-laydigan 80 ta xizmat ko'rsatish shoxobchasi ishga tushirildi. Bu yerda oziq-ovqat va xo'jalik mollari, kulochilik mahsulotlari sotuvi, ishlab chiqarish ustaxonalari, namozxon, kompyuter xizmati, sataroshxon, dorixon, stomatologi-

ya, tibbiy diagnostika, qassobxon, umumiy ovqatlanish, pishiriq tayyorlash shoxobchasi, fotostudiyasi, ayollar qo'zallik saloni singari kun-dalik hayotda kerakli bo'lgan xizmat ko'rsatish tarmoqlari ishlab turibdi. Tungi chiroqlar o'rnatildi, yo'lar asfaltlandi, piyodalar yo'laklari, transport to'xtash joylari qurildi.

— Prezidentimizning "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlar salmo-g'ini oshirdi, — deydi tuman hokimining birinchi o'rinbosari Aziz Mustafog'ulov. — Qaror ijrosi doirasida 12 ta mahalla fuqarolar yig'ini turizm mahallalariga aylantirish, savdo-servis sohasini rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan. Yo'l bo'ylarida savdo, gas-tro nomik, turizm va san'at yo'nalishlariga ix-tisoslashgan maxsus savdo va ko'ngilochar maskanlar bo'y ko'rsatmoqda. Eng muhimi, mazkur mahallalarda soliq to'lovchilarning aylanmadigan soliq to'lovi stavka-si 2022-yil 1-apreldan boshlab 1 foiz etib belgilangan. Bundan tashqari, yer va mulk soliqlari stavkasining kamaytirilishi natijasida turizm hududida joylashgan 327 ta noturar

obyektlarga hisoblangan 770,9 million so'm mablag' tadbirkorlar ixtiyorida qoldi. Bu juda katta imtiyoz va imkoniyat. Asosiy maqsad yangi xizmat ko'rsatish tarmoqlari faoliyatini rivojlantirish orqali turizm salohiyatini kengay-tirish, aholi bandligini ta'minlash, farovonligini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirishdir.

Qutlug' qadamjolar

Keyingi yillarda ziyorat turizmi ham omma-lashmoqda. Rishtondagi muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarga qiziqish katta. Shu maqsadda mazkur majmualar haqida to'laqonli ma'lumot to'plash, ta'mirlash, ziyoratchilar uchun zarur shart-sharoit yaratish, targ'ib qilishga e'tibor oshdi. Shu kunga qadar "So-hibi hidoya", "Xo'ja Rushnoiy", "Xo'ja Ilg'or", "Mulla Ismatulloh qori" va "Yigitpirim" ziyorat-gohlari ta'mirlash-obodonlashtirish ishlari olib borildi. Bu yerlarga, ayniqsa, islom mam-lakalaridan keluvchi sayyoh va ziyoratchilar ko'paygan.

"Xo'ja Ilg'or" va "Mulla Ismatulloh qori" zi-yoratgohlari o'ziga xos me'morchilik ansamb-liga ega. Tadqiqotchilarning aytishicha, maj-mua XIX asrda shu yerlik tanikli shaxs Xo'ja Ilg'or sharafiga qurilgan. Majmuada masjid, maqbara, chilla-xona, g'or hozirga qadar saqlanib turibdi. Davlat muhofazasiga olingan bino peshtoqlari, ustun va tom qismi Farg'o-na uslubiga xos naqsh bilan ishlangan. Unga yondosh "Mulla Ismatulloh qori" maqbarasi, chuqurligi 3-4 metrlik g'or, qachonlardir talab-balar uchun boshpana vazifasini o'tagan huj-ra va chilla-xonalarga ham sayyohlar qiziqish bilan qaraydi. Bu yerdagi bir asrik tul daraxti ham hammaning hayratini uyg'otadi.

— "Xo'ja Rushnoiy" ziyoratgohi qutlug' qadamjolaridan, — deydi "Nuroni" jamg'armasi tuman bo'limi raisi, "Do'stlik" ordeni sohibi Tur-sunxoja Abdurrahmonov. — Umumiy qiymati 1,5 milliard so'mlik ta'mirlash ishlari bajarilib, mahalliy va xorijlik sayyohlarni qabul qila oladigan majmuaga aylandi. Xo'ja Rushnoiy yorug-

lik, ro'shnolik, xayriy amallar timsoli sifatida qadimdan qadrlab kelingan. Har yili o'rta hisobda 120 mingdan ortiq ziyoratchi keladi. Bu nom-dagi maqbaralar Afg'onistonning Kobul, Tojikis-tonning Xo'jand shaharlarida, Samarqanddagi Chokardizga qabristonida ham bor. Kimki ixlos bilan bu ziyoratgohga kelsa, omadi yurishadi, qalbiga yorug'lik inadi, deydishadi.

Tumanda yana ko'plab qadamjo va ziyoratgohlar bor. Jumladan, "Xo'ja Abdullai An-soriy", "So'fi Sodiq", "Tutmozor", "Oqmozor", "Murod buva" singari qadamjolar tadqiqotchi olimlar tomonidan o'rganilishi va obodon-lashtirilishi kerak bo'lgan ko'hna manzilgohlar sirasiga kiradi.

Yaponcha gaplashamiz

"Rishton — Yaponiya" madaniy iqtisodiy aloqalar markazi qoshida tashkil etilgan yapon tilini o'qitish maktabi kunchiqar o'lka bilan ilmiy-madaniy, turizm aloqalarini tiklashda o'ziga xos tilmoqchilik va xizmat ko'rsatish bilan ajralib turadi.

Bu yerda vodi-y shahar va tumanlaridan kelgan 160 dan ziyod yigit-qiz tahsil oladi. Ularga Yaponiyadan kelgan tajribali ustozlar saboq beradi.

— Maktabimizning ko'plab sobiq o'quvchilari Yaponiyadagi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olib, o'sha yerdagi yirik firma va kompaniyalarda faoliyat ko'rsatib kelmoqda, — deydi maktab rahbari G'anisher Nazirov. — Yoshlar-ga nafaqat yapon tili, balki kunchiqar yurtning madaniyatini, urf-odat va an'analarini, tarixi ham o'rgatildi.

Markaz tashkil topganidan buyon o'zaro do'stlik va madaniy aloqalar tobora kengay-moqda. Keyingi yillarda mingdan ortiq yaponi-yalik mehmonlar ushbu markaz hamda yapon tilini o'qitish maktabi faoliyatini bilan tanishish maqsadida Rishtonga keldi. Bu yerda ularning usta kulollar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hamda mahalliy urf-odatlar bilan yaqindan tanishishlari uchun barcha sharoit hozirlangan.

Sirasini aytganda, kulollar yurti Rishton turizm yo'nalishida ham butunlay yangicha manzara kasb etgan.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Publication information including "Yangi O'zbekiston" gazetalar tahririyati, MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Bosh muharrir: Salim DONIYOROV, and contact details for subscriptions and advertising.